

2023- yil yanvar-aprel oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(75) 221-44-28



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryoda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **179600,8 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **190098,1 ming AQSH** dollariga yoki **5,5 %** ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **179600,8**    **-5,5%**  
(2022- y.: **190098,1**)



### Saldo

2023- y.: **57063,6**  
(2022 y.: **7263,5**)



### Eksport

2023- y.: **118332,2**    **+6,9 %**  
(2022- y.: **98680,8**)



Tovarlarni: **116904,9**



Xizmatlar: **1427,3**



### Import

2023- y.: **61268,6**    **-9,4 %**  
(2022- y.: **91417,3**)



Tovarlarni: **60969,6**



Xizmatlar: **299,0**






**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






TSAda eksport hajmi **118332,2** ming AQSH dollariga (**19,9 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **61268,6** ming AQSH dollariga (**33,0 %** ga kamaydi).

Hisobot davrida **57063,6** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




### QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)

Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	XXR	BAA	Qozog‘iston
TSA –43262,6	TSA –25828,6	TSA – 2450,4	TSA -16802,0	TSA-11105,1
Eksport:34613,3 Import: 8649,3	Eksport:18554,6 Import: 7274,0	Eksport: 1786,7 Import: 663,7	Eksport: 16772,3 Import: 29,7	Eksport: 3909,4 Import: 7195,7
 24,1 %	 14,4 %	 1,4 %	 9,4%	 6,2 %

Polsha	Pokiston	Qirg‘iz Respublikasi	Hindiston	Misir
TSA – 6936,8	TSA – 5665,8	TSA – 4814,7	TSA – 4425,9	TSA – 4267,4
Eksport:6725,5 Import: 211,3	Eksport:4757,8 Import: 908,0	Eksport: 3091,6 Import: 1723,1	Eksport: 3627,1 Import: 798,8	Eksport: 4251,5 Import: 15,9
 3,9 %	 3,2 %	 2,7 %	 2,5 %	 2,4 %

Qashqadaryo viloyati jahonning **63** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (**24,1** %), Rossiya Federatsiyasida (**14,4** %), XXRda (**12,9** %), BAAda (**9,4** %), Qozog'istonda (**6,2** %), Polshada (**3,9** %) va Pokistonda (**3,2** %) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

(2023- yil yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 25964,0



Rossiya Federatsiyasi – 11280,6



BAA – 16742,6



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **63** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **29** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **34** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Turkiya</b>	<b>18993,3</b>	<b>30896,5</b>	<b>43262,6</b>
 <i>Eksport</i>	12953,5	22980,3	34613,3
<i>Import</i>	6039,8	7916,2	8649,3
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>9399,7</b>	<b>15415,5</b>	<b>25828,6</b>
 <i>Eksport</i>	5064,7	9598,8	18554,6
<i>Import</i>	4335,0	5816,7	7274,0
<b>XXR</b>	<b>19363,4</b>	<b>29855,6</b>	<b>2450,4</b>
 <i>Eksport</i>	4398,1	8260,5	1786,7
<i>Import</i>	14965,3	21595,1	663,7
<b>BAA</b>	<b>459,3</b>	<b>503,7</b>	<b>16802,0</b>
 <i>Eksport</i>	125,5	457,3	16772,3
<i>Import</i>	333,8	46,4	29,7
<b>Qozog'iston</b>	<b>11262,1</b>	<b>6732,9</b>	<b>11105,1</b>
 <i>Eksport</i>	3252,7	2069,5	3909,4
<i>Import</i>	8009,4	4663,4	7195,7
<b>Polsha</b>	<b>580,2</b>	<b>3270,7</b>	<b>6936,8</b>
 <i>Eksport</i>	370,1	2588,2	6725,5
<i>Import</i>	210,1	682,5	211,3
<b>Pokiston</b>	<b>1713,6</b>	<b>2872,9</b>	<b>5665,8</b>
 <i>Eksport</i>	1591,4	2734,2	4757,8
<i>Import</i>	122,2	138,7	908,0
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>2685,0</b>	<b>3050,1</b>	<b>4814,7</b>
 <i>Eksport</i>	2559,1	2353,6	3091,6
<i>Import</i>	125,9	696,5	1723,1
<b>Hindiston</b>	<b>883,2</b>	<b>2197,6</b>	<b>4425,9</b>
 <i>Eksport</i>	691,2	1286,7	3627,1
<i>Import</i>	192,0	910,9	798,8
<b>Misr</b>	<b>1195,7</b>	<b>695,5</b>	<b>4267,4</b>
 <i>Eksport</i>	1195,7	695,5	4251,5
<i>Import</i>	0,0	0,0	15,9


	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Latviya</b>	<b>651,2</b>	<b>88,7</b>	<b>3315,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	88,7	4,9
	<i>Import</i>	651,2	0,0	3310,1
	<b>Vetnam</b>	<b>0,0</b>	<b>576,7</b>	<b>4224,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	576,6	4161,9
	<i>Import</i>	0,0	0,1	62,3
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>3766,6</b>	<b>5940,3</b>	<b>2450,4</b>
	<i>Eksport</i>	2804,4	3360,9	1786,7
	<i>Import</i>	962,2	2579,4	663,7
	<b>Tojikiston</b>	<b>2920,1</b>	<b>2021,6</b>	<b>1773,0</b>
	<i>Eksport</i>	2709,4	239,9	1477,2
	<i>Import</i>	210,7	1781,7	295,8
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>679,1</b>	<b>1376,4</b>	<b>1741,5</b>
	<i>Eksport</i>	1,9	155,8	3,1
	<i>Import</i>	677,2	1220,6	1738,4
	<b>Avg'oniston</b>	<b>5254,1</b>	<b>6383,1</b>	<b>1893,0</b>
	<i>Eksport</i>	5254,1	6283,1	1850,4
	<i>Import</i>	0,0	100,0	42,6
	<b>Marokash</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>1355,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	1355,3
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
	<b>Germaniya</b>	<b>1553,4</b>	<b>6718,4</b>	<b>1511,3</b>
	<i>Eksport</i>	3,6	1019,7	108,5
	<i>Import</i>	1549,8	5698,7	1402,8
	<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>380,1</b>	<b>418,5</b>	<b>1598,9</b>
	<i>Eksport</i>	162,9	337,3	537,0
	<i>Import</i>	217,2	81,2	1061,9
	<b>Yaponiya</b>	<b>104,8</b>	<b>3420,3</b>	<b>1009,4</b>
	<i>Eksport</i>	98,5	161,5	0,0
	<i>Import</i>	6,3	3258,8	1009,4



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel oylari)\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>179 600,8</b>	<b>94,5</b>	<b>100,0</b>
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	7 606,6	83,4	4,2
Dehqonobod	7 238,1	244,4	4,0
Qamashi	5 444,2	65,7	3,0
Qarshi	28594,0	56,5	15,9
Koson	9 025,6	37,2	5,0
Kitob	8 177,9	40,0	4,6
Mirishkor	3 850,1	74,9	2,1
Muborak	2 150,7	60,0	1,2
Nishon	25 382,7	1038,4	14,1
Kasbi	37 572,5	184,0	20,9
Ko'kdala	1 972,3	-	1,1
Chiroqchi	2 805,5	127,5	1,6
Shahrisabz	2 757,0	72,7	1,5
Yakkabog'	10 371,9	215,3.	5,8
Qarshi sh.	24 517,2	87,2	13,7
Shahrisabz sh.	2 103,7	56,2	1,2
Boshqalar	30,8	21,4	-

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **20,9 %** ulush bilan **37 572,5** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Ko'kdala tumani **1,1 %** ulush bilan **1972,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **26,9** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,9** % ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,4** % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **73,1** % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-aprel oylari holatiga ko'ra, **48226,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **30512,6** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **17713,6** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 25828,6  
Eksport – 18554,6  
Import – 7274,0



### Qozog'iston

TSA – 11105,1  
Eksport – 3909,4  
Import – 7195,7



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 4814,7  
Eksport – 3091,6  
Import – 1723,1



### Belarus Respublikasi

TSA – 1598,9  
Eksport – 537,0  
Import – 1061,9



### Tojikiston

TSA – 1773,0  
Eksport – 1477,2  
Import – 295,8



### Ozarbajjon

TSA – 792,7  
Eksport – 684,3  
Import – 108,4



### Moldova Respublikasi

TSA – 839,8  
Eksport – 839,8  
Import – 0,0



### Ukraina


TSA – 212,3  
Eksport – 169,1  
Import – 43,2




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**14,4 %**), Qozog'iston (**6,2 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**2,7 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **48226,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **30512,6** ming AQSH dollari, import hajmi esa **17713,6** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **120** taga yetdi va ular tomonidan **85776,5** ming AQSH dollari qiymatini va (2022- yilning mos davriga nisbatan **24,4** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-aprel oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>68928,5</b>	<b>85776,5</b>	<b>142,9</b>	<b>124,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11518,8	15093,6	167,1	137,3	13,4	14,8
Ichimliklar va tamaki	33,6	6,7	12,9 m.	19,9	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1388,8	1050,2	2,6 m.	75,6	2,0	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5345,4	9344,5	78,1	174,8	7,8	10,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	772,8	-	-	-	1,1	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10,5	38,7	122,1	3,7 m.	-	0,1
Sanoat tovarlari	50294,7	60486,3	152,2	120,3	73,0	70,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	599,5	757,7	3,5 m.	126,4	0,9	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	26,3	7,3	127,1	27,8	-	-
Boshqa tovarlar	-	272,7	-	-	-	0,3
Xizmatlar	1187,7	1084,6	60,5	91,3	1,7	1,3


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,1 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**70,5 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**14,8 %**) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**10,9 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga **30512** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **27,3 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, Polsha, Pokiston, Misr va Xtoy kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **76,8 %** ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel oylari % da)





## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	37336,8	34613,3	177,4	110,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	13846,4	18554,6	189,5	156,5	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	606,1	16772,3	3,6 m.	20,7 m.	15	3
Polsha	3099,4	6725,5	7,0 m.	2,2 m.	7	4
Pokiston	3584,7	4757,8	171,8	152,9	6	5
Misr	695,5	4251,5	58,2	4,8 m.	12	6
Hindiston	1660,9	3627,1	186,2	2,5 m.	10	7
Qirg'iz Respublikasi	3219,0	3091,6	92,0	129,4	8	8
Vetnam	576,6	4161,9	-	4,9 m.	14	9
Qozog'iston	2263,3	3909,4	63,6	117,9	9	10
XXR	10648,7	1786,7	187,8	23,6	3	11
Afg'oniston	7960,7	1850,4	119,6	24,1	4	12
Eron Islom Respublikasi	5918,1	1786,7	119,8	41,8	5	13
Marokash	-	1355,3	-	-	-	14
Tojikiston	305,9	1477,2	8,8	5,6 m.	16	15
Moldova Respublikasi	1313,6	839,8	3,2 m.	78,1	11	16
Belgiya	-	615,6	-	-	-	17
Bangladesh	-	551,5	-	-	-	18
Ozarbajjon	905,9	684,3	-	64,1	13	19
Tunis	-	270,4	-	-	-	20



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-aprel oylari)\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati , % da	Ulushi, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>118332,2</b>	<b>119,9</b>	<b>100,0</b>
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	2 209,2	52,0	1,9
Dehqonobod	5 468,2	4,4 m.	4,6
Qamashi	3 498,2	51,2	3,0
Qarshi	23134,5	64,8	19,6
Koson	8 067,1	62,6	6,8
Kitob	1 872,3	104,1	1,6
Mirishkor	1 958,5	107,7	1,7
Muborak	1 577,5	51,2	1,3
Nishon	20386,3	16,8 m.	17,2
Kasbi	33211,6	291,6.	28,1
Ko'kdala	1 786,7	-	1,5
Chiroqchi	2 311,7	2,2 m.	2,0
Shahrisabz	2 721,8	109,8	2,3
Yakkabog'	2 501,3	101,6	2,1
Qarshi sh.	6 886,5	58,8	5,8
Shahrisabz sh.	710,0	125,3	0,6
Boshqalar	30,8	21,4	-

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **28,1 %** bilan **33211,6** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,6 %** bilan **710,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida **98,6** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,4** barobarga yoki **8,5** ming tonnaga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**31,8** %), Rossiya Federatsiyasi (**27,8** %), Qozog'iston (**18,6** %), hamda Afg'oniston (**10,9** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **8441,4** ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,5** % ga kupaydi va jami eksportdagi ulushi **9,8** % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-aprel oylarida o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Dukkakli sabzavotlar</b></p> <p><b>3400,1 ming AQSH dollari</b></p> <p>18,7 ming tonna</p> <p> 2,1 m. % ↑</p>	<p><b>Mevalar</b></p> <p><b>2033,1 ming AQSH dollari</b></p> <p>24,2 ming tonna</p> <p> 116,1 % ↑</p>	<p><b>Uzum quritilgan</b></p> <p><b>976,7 ming AQSH dollari</b></p> <p>9,1 ming tonna</p> <p> 68,2 % ↓</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p><b>553,4 ming AQSH dollari</b></p> <p>6,3 ming tonna</p> <p> 104,5 % ↑</p>
<p><b>Boshqa sabzavotlar</b></p> <p><b>397,0 ming AQSH dollari</b></p> <p>9,9 ming tonna</p> <p> 3,7 m. % ↑</p>	<p><b>Xar-xil karamlar</b></p> <p><b>231,9 ming AQSH dollari</b></p> <p>9,4 ming tonna</p> <p> 49,9 % ↓</p>	<p><b>Xar-xil piyozlar</b></p> <p><b>225,4 ming AQSH dollari</b></p> <p>4,5 ming tonna</p> <p> 2,2 m. % ↑</p>	<p><b>Quritilgan sitrus mevalar</b></p> <p><b>202,6 ming AQSH dollari</b></p> <p>1,5 ming tonna</p> <p> 3,3 m. % ↑</p>





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-aprel oylari)

Davlatlar	Ming tonna	ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	11042,8	4049,9	31,8
 Rossiya Federatsiyasi	2488,1	2733,8	27,8
 Qozog'iston	5212,6	1790,6	18,6
 Afg'oniston	1665,2	1143,1	10,9
 Tojikiston	1137,3	470,0	5,2
 Iroq	138,5	302,3	2,2
 BAA	91,0	207,0	1,3
 Turkiya	64,0	62,1	0,6
 Ozarbayjon	167,5	145,8	0,4
 Jazoir	22,0	30,8	0,4
 Eron Islom Respublikasi	337,6	198,4	0,4
 Belarus	35,5	23,2	0,5
 Boshqa davlatlar	56,5	28,4	0,4

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **31,8** % i), bu ko'rsatkich Eron Islom Respublikasi eksport hajmidan **79,5** barobar ko'p.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.






Xususan, 2023- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo‘yicha **78027,4 ming** AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **69,1 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **23,3 %** ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**86,5 %**), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**12,6 %**) asosiy ulushni egallagan.

### TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)



		2022- yil	2023- yil
<b>Jami</b>		<b>48072,3</b>	<b>78027,4</b>
	Ip kalava	42414,7	69239,1
	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	4680,5	7456,8
	Trikotaj mato	352,9	956,9
	Gazlamalar	624,2	374,6
	Paypoq mahsulotlari	-	-

## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari)



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
	Turkiya	36848,0	345229,9	9,4 m.
	Rossiya Federatsiyasi	7986,6	14166,0	17,7 m.
	Polsha	3092,0	6607,3	2,1 m.
	Misr	695,5	4251,5	6,1 m.
	Vetnam	576,6	4161,9	7,2 m.
	Qirg‘iz Respublikasi	1566,7	2208,9	2,9 m.
	XXR	9647,0	4517,3	14,0
	Marokash	-	1355,3	-
	Eron Respublikasi	2501,6	1595,9	63,7
	Tojikiston	10,3	879,8	85,4 m.
	Moldova Respublikasi	1248,1	839,8	67,2
	Belgiya	-	615,6	-
	Bangladesh	-	551,5	-
	Pokiston	2134,0	541,5	25,3
	Boshqa davlatlar	1456,4	1581,1	108,5




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**9,4m. % – 345229,9** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**17,7 % – 14166,0** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **1427,3** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,2** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,9** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**46,3** %), transport (**34,6** %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**18,0** %) va safarlar (turizm) (**1,1** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **61268,6** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **67,0 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**50,3 %**), mashinalar va transport asbob- uskunalari (**11,5 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**13,3 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-aprel oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22759,3** ming AQSH dollariga kamaydi va **42808,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **299,0** ming AQSH dollariga yetdi.




## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-aprel oylari holati)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>91473,3</b>	<b>61268,6</b>	<b>271,9</b>	<b>67,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5449,4	5057,4	61,4	92,8	8,1	8,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar	-	-	-	-	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3624,6	3028,5	71,7	83,6	3,9	4,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	11452,6	9551,3	38,5	83,4	7,9	15,6
Sanoat tovarlari	2860,9	3259,3	-	113,9	67,5	5,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	58145,8	34611,7	69,8	59,5	7,5	56,5
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	-	-
Boshqa tovarlar	9884,0	5461,5	30,5	55,3	-	8,9
Xizmatlar	-	299,0	-	-	-	0,6

2023- yil yanvar-aprel oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **80,4 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan (yanvar-aprel oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da) **7,6 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-aprel oylarida Qashqadaryo viloyati **44** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Latviya, Koreya Respublikasi va Qirg'iz Respublikasi ) jami importning **78,1 %** ni tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel oylari % da)





## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-aprel oylari holati)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	21595,1	11120,1	144,3	51,5	1	1
Qozog'iston	4663,4	6055,1	58,2	129,8	5	2
Rossiya Federatsiyasi	5816,7	5851,3	134,2	100,6	3	3
Turkiya	7916,2	4803,6	131,1	60,7	2	4
Latviya	-	2955,4	-	-	-	5
Koreya Respublikasi	1220,6	1561,8	180,2	128,0	9	6
Qirg'iz Respublikasi	696,5	1099,7	5,5 m.	157,9	13	7
Germaniya	5698,7	1063,6	3,7 m.	18,7	4	8
Yaponiya	3258,8	954,9	517,3 m.	29,3	6	9
Italiya	728,7	901,8	84,8	123,8	11	10
Pokiston	138,7	831,2	113,5	6,0 m.	18	11
Belarus Respublikasi	81,2	804,9	37,4	10,0 m.	19	12
Hindiston	910,9	606,0	4,7 m.	66,5	10	13
Eron Islom Respublikasi	2579,4	532,3	2,7 m.	20,6	7	14
Shveytsariya	166,0	504,9	8,7 m.	3,0 m.	16	15
Kanada	197,2	486,5	22,3	2,5 m.	15	16
AQSH	231,8	446,5	2,1 m.	192,6	14	17
Fransiya	165,4	439,7	3,4 m.	2,6 m.	17	18
Niderlandiya	705,9	316,7	6,7 m.	44,9	12	19
Tojikiston	1781,8	293,7	8,5 m.	16,5	8	20





## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-aprel oylari)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>42808,5</b>	<b>65,3</b>	<b>100,0</b>
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	5 397,4	110,8	8,8
Dehqonobod	1 769,9	102,1	2,9
Qamashi	1 946,0	133,6	3,2
Qarshi	5 459,5	36,5	8,9
Koson	958,5	8,4	1,6
Kitob	6 305,6	33,8	10,3
Mirishkor	1 891,6	56,9	3,1
Muborak	573,2	113,2	0,9
Nishon	4 996,4	4,0 m.	8,2
Kasbi	4 360,9	48,3	7,1
Ko'kdala	185,6	-	0,3
Chiroqchi	493,8	46,7	0,8
Shahrisabz	35,2	2,7	0,1
Yakkabog'	7 870,6	3,3 m.	12,8
Qarshi sh.	17 630,7	107,5	28,8
Shahrisabz sh.	1 393,7	43,9	2,3
Boshqalar	-	-	-

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 17630,7

Yakkabog' 7870,6

G'uzor 5397,4

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Shahrisabz 35,2

Ko'kdala 185,6

Chiroqchi 493,8

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **28,8** % bilan **17 630,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz tumani **0,1** % bilan **35,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **34611,7** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **0,4** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **11,5** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel oylari)




2023- yil yanvar-aprel oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,7** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **14,9** ming AQSH dollari (**60,7** %), Belarus Respublikasi - **521,2** ming AQSH dollari (**8,3** %) va Turkiya – **7866,2** ming AQSH dollari (**6,5** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **21537,1** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **51,3** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **50,3** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-aprel oylari ulushi, % da)

5868,3 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 27,2 %



XXR

4261,7 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 19,8 %



Turkiya

2748,3 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 12,8 %



Rossiya  
Federasiyasi

2709,2 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 12,6 %



Latviya

1465,2 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 6,8 %



Koreya  
Respublikasi




2023- yil yanvar-aprel oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22706,2** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- **5868,3** ming AQSH dollari (**27,2** %), Turkiya - **4261,7** ming AQSH dollari (**19,8** %) va Rossiya Federasiyasi – **2748,3** ming AQSH dollari (**12,8** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-aprel oylari ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **299,0** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **0,5** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**100,0** %), ga tegishli bo'ldi.